

O'zbek xalqining zoolatrik qarashlari

*Xalmuratov Baxtiyor Rejavalievich,
E: mail. baxtiyor_m@mail.ru.
dotsent, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Namangan davlat universiteti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek xalqining zoolatrik (hayvonot dunyosi) qarashlari tarixiy, filologik va etnografik jihatdan tahlil qilingan. Maqolada muallif asosiy e'tiborni o'zbek xalqi kundalik hayotida muhim o'rin tutgan hayvonlar, ularning funksiyalari, ular bilan bog'liq qarashlar, zootoponimlar, ushbu kul't bilan bog'liq qarashlarning diniy hamda dunyoviy talqinlarga qaratgan.

Kalit so'zlar: Farg'ona vodiysi, o'zbeklar, zoolatriya, marosimlar, urf-odatlar, an'analar, hayvonlar, baliq, qo'chqor, ot, ilon, qoramol, zooykonimlar, atributlar.

Зоолатрические взгляды узбекского народа

*Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич,
E: mail. baxtiyor_m@mail.ru.
доцент, доктор исторических наук (PhD)
Наманганский государственный университет*

Аннотация. В данной статье взгляды на зоолатрию (животный мир) узбекского народа анализируются с исторической, филологической и этнографической точки зрения. В статье автор остановился на животных, игравших важную роль в повседневной жизни узбекского народа, их функциях, воззрениях, связанных с ними, зootопонимах, религиозных и светских интерпретациях воззрений, связанных с этим культом.

Ключевые слова: Ферганская долина, узбеки, зоология, обряды, обычаи, традиции, животные, рыба, баран, лошадь, змея, крупный рогатый скот, животные зоопарка, атрибуты.

Zoolatric views of the Uzbek people

*Halmuratov Bakhtiyor Rejavalievich,
E: mail. baxtiyor_m@mail.ru.
Associate Professor, Doctor of philosophy in historical sciences (PhD)
Namangan State University*

Annotation. This article analyzes the zoolatry (animal world) views of the Uzbek people from a historical, philological and ethnographic perspective. In the article, the author focuses on the animals that play an important role in the daily life of the Uzbek people, their functions, views related to them, zootoponyms, and religious and secular interpretations of views related to this cult.

Keywords: Fergana Valley, Uzbeks, zoolatry, rituals, customs, traditions, animals, fish, ram, horse, snake, cattle, zooicons, attributes.

Ma'lumki, kishilik jamiyati tarixida hayvonlar doim muhim o'rin tutgan. Hayvonot olami nafaqat insonlar hayotining ajralmas qismi, balki sayyoramizdagi ekotizim rivojida ham muhim unsur hisoblanadi. Ular turli mintaqalarda yashovchi xalqlar va millatlarning kundalik turmush tarzi, xo'jaligi hamda madaniyatining shakllanishida muhim o'rin tutishi bilan birga, insoniyatning jismoniy va ruhiy holatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Bir so'z bilan ifodalaganda, hayvonot olami bilan kishilik jamiyatining o'zaro aloqasi insonlarga turli tuyg'ularni berish bilan birga, tabiatdagi muvozanatni saqlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, hayvonot olami bilan

insonlarni ming yillar mobaynida bir makonda yashashi ular bilan bog‘liq turfa xil qarashlarni shakllantirgan.

Dunyo miqyosida jamiyat taraqqiyoti natijasida jonivorlar bilan bog‘liq qadimiy e‘tiqod ildizlarini o‘rganish dolzarblik kasb etgan bo‘lsa, zamonaviy etnologik tadqiqotlar hayvon va inson munosabatlarini yangicha qarashlar asosida tadqiq etmoqda. O‘tgan asrdagi izlanishlarda asosan, ma‘lum bir xalqning jonivorlarga nisbatan tasavvurlari tahlili etnografik jihatdan tadqiq etilgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib rivojlangan jamiyatda inson va hayvonlar o‘rtasidagi munosabatlarning psixologik, sotsiologik, meditsina, hayvonlar huquqiga oid hamda qator boshqa jihatlari bo‘yicha ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda hayvonlar va din masalasi eng dolzarb ilmiy muammolardan biri bo‘lib kelmoqda. Ushbu masala yuzasidan qator tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Animalistik tahlil orqali jonivorlarni identifikatsiya qilish masalasida taniqli olim Tim Ingold tadqiqotlar olib borgan. Ushbu olim o‘z izlanishida hayvoniylik darajasi, inson tasavvurlarida hayvon konstruksiyasi, jonivorlar atrof-muhiti hamda inson va hayvon munosabatlari masalalariga oydinlik kiritib bergan. Bundan tashqari, u yana inson hayvon-munosabatlari mahsuloti, antropomorfizm, totemistik tasavvurlar, jonivorlikdan ijtimoiylashuvga aylanish kabi jihatlarni tahlil qiladi [1. P. 5].

Kezi kelganda shuni ta‘kidlash kerakki, turkiy xalqlar ham ming yillar davomida tabiat va hayvonot olamiga o‘ziga xos munosabatda bo‘lgan. Ilmiy adabiyotlar turkiy xalqlarning o‘tmishda bo‘ri, ayiq, burgut, ilon, echki, qo‘y, ho‘kiz kabi hayvon va parrandalar bilan bog‘liq e‘tiqodiy qarashlari mavjud bo‘lganligi haqida ma‘lumotlar qayd qilingan [2. C. 35–38].

Ma‘lumki, zoolatriyaning yana bir nomi animalizm bo‘lib, u biror hayvonni ilohiylashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan e‘tiqod va tasavvurlar majmuidir. Animalizmning kelib chiqishi ovchilik e‘tiqodlariga borib taqaladi. Qadimgi odamlar ovchilik bilan tirikchilik qilgan davrda o‘ljani qo‘lga kiritish uchun ov oldidan hayvonlarni sehrlovchi turli marosimlar o‘tkazganlar.

Hayvonlarni e‘zozlash ko‘p xalqlarda uchrab, u odamning hayvondan kelib chiqqanligi haqidagi miflar, u yoki bu hayvonni [iste‘mol](#) yoki ov qilishning man etilishi, biron qabila yoki urug‘ni hayvonlar nomi bilan atalishida ko‘rinadi. Shimoliy [Osiyo](#) va Amerika qit‘asida – ayiq, Hindistonda – sigir, Avstraliyada esa kenguruning muqaddas hisoblanishi animalizm qoldig‘idir [3. C. 2].

Hayvon kul‘ti bilan bog‘liq qarashlar jahondagi ayrim xalqlarning tillarida *pul* va *hayvon* so‘zlarini mujassamlanganligini ko‘rish mumkin. Masalan, qadimgi rimliklar *pul* va hayvonni “*pekuniya*”, greklar esa “*ktema*” deb atagan bo‘lib, ushbu qarash hozirgi zamon tillarida ham saqlanib qolgan. Inglizcha “*impiktayunies*” so‘zi *puli yo‘q odam*, agar ushbu so‘zma-so‘z tarjima qilinsa, “hayvoni yo‘q” degan ma‘noni anglatadi.

Dunyodagi ko‘pchilik xalqlar o‘rtasida hayvon boylikni belgilovchi vosita bo‘lgan. Gomerning she‘rlarida qahramonlarning boyligi ixtiyoridagi chorvasi bilan belgilangan. Qadimgi german qabilalarida ham kishining boyligi qancha mol-hayvoni borligi bilan o‘lchangan. Qadimgi Eronda tabiblarga xizmat haqiga hayvon berilgan bo‘lib, bunday odat ba‘zi bir xalqlarda ayni paytda ham saqlanib qolgan [4. B. 49].

Bundan tashqari, maqolaga oid ma‘lumotlarni to‘plash jarayonida Farg‘ona vodiysi hududida bir qator zootoponimlarga duch kelindi. Ma‘lumki, “Zootoponim” yunoncha “*zoo*” – hayvon, “*topos*” – joy” degan ma‘nolarni anglatib, hayvonlarning nomlaridan hosil bo‘lgan joy nomlari esa *zootoponimlar* deb ataladi [5. B. 7–8]. Zootoponimlar suv, o‘rmon, cho‘l va dala-dashtlarda yashovchi turli xil hayvonlar haqida qimmatli ma‘lumotlar beradi. Tadqiqotchi N. Oxunov o‘zining risolasida zootoponimlarni turiga ko‘ra, uy, yovvoyi hamda suvda yashovchi, qush va parrandalar kabi guruhlarga bo‘lib o‘rgangan. Ushbu joy nomlariga *Otxona*, *Eshakbuloq*, *Tulkiuya*, *Palangdara*, *Baliqko‘l*, *Qunduzbuloq*, *Kaptarxona* va *Zag‘chaxona* zootoponimlarni misol qilib keltirgan [6. B. 44].

Shuningdek, tadqiqotchi Yu. Ne‘matova esa Chust tumani Sho‘rkent qishlog‘ida

tovuqsimonlar oilasiga mansub sayroqi tog' qushi – kaklik ko'pligiga ko'ra, *Kaklikqo'rg'on* deb atalgan oykonim "*kakliklar ko'p bo'lgan aholi manzilgohi*" degan ma'noga ega ekanligini qayd etgan [7. B. 59].

O'z navbatida, Jizzax viloyati oykonimiyasida ham shunday joy nomlari uchraydi. Tadqiqotchi X. Davurovaning ma'lumot berishicha, ularning vujudga kelishida hayvon, qush va boshqa jonivorlarning nomlari asos bo'lgan. Jumladan, Zomin tumanidagi *Laylakuya* qishlog'i nomi shunday zoooykonimga misol bo'la oladi. Tabiatdan ma'lumki, laylaklar asosan, aholi punktlariga yaqin yerlarda yashaydi, shuning uchun laylaklar uchib kelib, in qo'yadigan joy, ya'ni qishloq *Laylakuya* deb atalgan [8. B. 76].

Shuningdek, Jizzax viloyati Forish tumanidagi *Jayraxona* qishlog'i ham jayra nomi bilan bog'liq. Jayra – sut emizuvchilar turkumiga mansub bo'lib, junlari orasida ko'pincha himoya vazifasini bajaradigan duksimon ignalari bo'lgan kemiruvchi hayvondir. Ilgari shu kabi hayvonlar yashaydigan joy jayraxona deb ham atalgan. Ko'p jayralar yashaydigan joyga yaqin bo'lgan qishloq ham *Jayraxona* deb ataladi [9. B. 76]. Hayvon va qush nomlari toponimlashuv natijasida joy nomiga o'tgan, ya'ni zoooykonimlar hosil bo'lgan. Ammo, viloyat hududida zoooykonimlar kam uchraydi. Bu ham ushbu hududning o'ziga xos xususiyatlaridan biri sanaladi.

Farg'ona vodiysida ham turli nomlardagi zoooykonimlar mavjud. Mazkur turdagi joy nomlarining atalishida hayvon va qushlar turlarini ifodalovchi so'zlar faol ishtirok etadi. Masalan, "Qo'chqor" so'zi: *Qo'chqorchi* – Quvasoy shahridagi qishloq nomi. *Qo'chqorchi* – qo'chqor boqiladigan joy degan ma'noni anglatadi. Shuningdek, Andijon viloyati Asaka tumani nomi ham zoooykonim hisoblanadi. Shahar nomining kelib chiqishi haqida turli fikrlar mavjud. Ayrim tadqiqotchilar "Asaka" nomini Farg'onada miloddan avvalgi VI–V asrlarda yashagan sak qabilalari bilan bog'laydi. Chunki, ushbu qabila ba'zi joylarda "assakenlar" nomi bilan ham atalgan. Ularda "asvaka" – ot, "assaka" – otiqlar ma'nosini bildirgan [10. B. 9].

[Arxeolog](#) B. Matboboyev yuqoridagi fikrni vodiyning sharqiy qismida topilgan toshlardagi otlar tasviri bilan asoslashga harakat qilgan va shu joylarda nasldor otlar yetishtirilgan, degan fikrni ilgari surgan. Toponomist olim S. Qorayev Asaka tumanidagi "Axtachi" qishlog'i nomi mo'g'ulcha bo'lib, *ot tabibi (sinchi)*, *otboqar* degan ma'noni bildirishini ta'kidlab, yuqoridagi mulohazalarni birmuncha tasdiqlaydi [11. B. 96].

Endi o'zbek xalqining zoolatrik qarashlarini etnografik jihatdan tahlil qilib chiqamiz. Farg'ona vodiysining Chust, Pop va Dang'ara tumanlarida homilador ayol ba'zi ovqatlarni yeyishi ham ta'qiqlangan. Chaqaloqning sog'ligini saqlash, uni o'z vaqtida dunyoga kelishini ta'minlash maqsadida homilador ayolga tuya go'shtini yeyish ma'n qilingan [12. *Dala yozuvlari. Farg'ona vodiysi aholi punktlari. 2020–2025-yillar*].

Qadimgi mifologiyada kuch-qudrat, hokimiyat, hosildorlik va davlat timsoli sifatida muqaddaslashtirilgan tuya go'shtini yegan ayol vaqtdan ancha o'tkazib tug'adi, degan aqidaga ko'ra, unga ushbu hayvonning go'shtini yeyish ta'qiqlangan. Mabodo, biron tasodif bilan og'iroyoq ayol tuya go'shtini yeb qo'ygan bo'lsa, ko'ngilsizlikning oldini olish uchun turli afsungarlik irimlari bajarilgan. Jumladan, homilador ayolning eriga ham tuya go'shti yedirilgan. Bo'lg'usi otaga tuya go'shtini yedirish orqali go'yoki uning afsungarlik ta'siri kesilgan [13. B. 16].

Qadimgi, ilk urug', qabila nomlari o'zbek xalqining totemistik qarashlari bilan bog'liq. Xalqimizning tabiatdagi hayvonlar, qushlar, hasharotlar va turli jonivorga munosabati, insoniyat hayotida jonivorlarning o'rni, odamlarning tirik mavjudotga munosabati urug', qabilalarning nomlanishida ma'naviy va ma'noviy omil, motivatsion asos vazifasini o'tagan.

Hozirgi o'zbek etnonimlarini asos va qo'shimchalarga ajratish, ular anglatgan ma'nolar tahlil qilinsa, etnonimlar asosidagi so'zlar turli jonivorlarning nomi ekanligi ma'lum bo'ladi. Qadimgi turkiy til, hozirgi turkiy tillar, mo'g'ul va tungus-manjur tillari dalillari qiyoslansa, totemistik tasavvur, qarash va nuqtai nazarlar mohiyati aniqlanadi. Kerayit etnonimining asosi kerey/keray (qarg'a), esat (sher, qoplon), qiyot (qush – qiyg'ir/qirg'iy), bayot, boyovut (boy – qush turi), burqut (burgut), o'ymovut (bug'u), sayot (hayvon, qiyoslang: sayg'oq), qo'ng'iroq (qora qarg'a), uyrat

(sigir, buqa, qo'tos), arlot (it). Etnonimga asos bo'lgan mavjudot nomiga uzoq o'tmishda jamlik ma'nosini bildirgan qo'shimcha qo'shilgan. Qarg'a qushini o'zlariga totem deb bilib, qarg'aga sig'inuvchi jamoani o'zgalar (yonma-yon yashagan jamoa) kerey+it/keray+it deb atashgan. Zikrlangan urug', qabila nomlari ham o'zgalar tomonidan yaratilgan. Chunki, ushbu qabila, urug' tug'i va tug'rosida totem maqomidagi mavjudotning tasviri tushirilgan. Tug' va tug'roda totem sanalgan jonivor tasvirining bo'lishi urug' jamoasining nomlanishi hamda o'zga jamoalar, elu yurtlarga tarqalishini ommaviylashtirgan, xalq xotirasida muhrlanishini tezlashtirgan [14. B. 71].

Vodiyning aksar hududlarida bahorda aosiy suv manblari bo'lgan ariq va kanallar hashar usulida qazilgan. Hashar oxirida suv ochilgach, aholi pul, bug'doy, oziq-ovqat mahsulotlari to'plab, mablag'ga jonliq (buzoq, bo'z biya, oq toychoq, qo'chqor, echki) sotib olingan va qurbonlik qilingan. O'rta Osiyoning ba'zi hududlarida bo'g'izlangan hayvon qoni suvga oqizilgan, hayvon tanasi esa suvga tashlab olingan. Xorazmda yangi ariq qazilib, Amudaryoga ulanganda xon buyrug'iga ko'ra, 8–10 ta sigir, ho'kizlar qurbonlik qilingan. Bo'g'izlangan hayvonlar go'shti suvdan olib chiqarilgan va pishirib yeyilgan. Bunday odat qadimda suv shohlari uchun odamlarni qurbon qilishning saqlanib qolgan ko'rinishlaridan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, ho'kizning suv toshqinlari bilan an'anaviy bog'liqligi Sharq xalqlarining qadimgi dinlarida aks etgan [15. C. 32]. Ho'kiz kul'tining suv bilan bog'liqligini keyingi davr an'alarida ham uchratish mumkin. Jumladan, Andijon o'zbeklarida agar qurg'oqchilik bo'lib, yomg'ir yog'masa, mozorda mol so'yib qurbonlik qilingan yoki XX asrning 70 yillariga qadar Sirdaryo suvi toshgan vaqtda daryoga bag'ishlab turli hayvonlar (ho'kiz, qo'y, qo'chqor) qurbonlik qilingan [16. *Dala yozuvlari. Andijon viloyati Baliqchi Ko'l mahallasi. 2024-yil*].

Tabiatdagi har bir tirik mavjudot qattiq himoya qilingan, ularga umuman ziyon yetkazish gunoh hisoblangan. Bu haqda "Avesto"da, Qur'oni karim va hadislar, Sharq, jumladan, Markaziy Osiyo buyuk allomalarining boy merosida purhikmat iboralar mavjud. Shu boisdan ham atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha etnoekologik qadriyatlarni qayta tiklash, omma, jumladan yoshlar ongiga chuqur singdirish, xalqimizning an'ana va udumlariga qat'iy rioya qilgan holda ona tabiatni kelajak avlodga bekamu ko'st yetkazish nihoyatda dolzarb masala bo'lib turibdi.

Hayvon kul'ti bilan bog'liq qarashlar oilaviy tantanalardagi initsiatsion ko'rinishlardan biri – **kiyim kiydirish marosimida** ham ko'zga tashlanadi. Ma'lumki, har uchta bosqich bilan bog'liq marosimlarda initsiatsiya bo'layotgan shaxslarga oq rangdagi yangi libos kiydiriladi. O'zbeklarda chaqaloq 3–5–7 kunlik bo'lganda, unga ilk marta ko'ylak, ya'ni "chilla ko'ylak" kiydirish odati mavjud. Ushbu ko'ylak Farg'ona vodiysida "chilla ko'ylak", Toshkent, Samarqand, Buxoroda esa "it ko'ylak" deb atalgan [17. B. 40–41]. Bu yerda muhim jihat shundaki, chaqaloqning chilla ko'ylagini "it ko'ylak" deb nomlanishidir. Ushbu ko'ylakning *it ko'ylak* deb nomlanishi borasida turli qarashlar mavjud. Ayrim tadqiqotchilar chaqaloqqa chilla davri zarar yetkazishi mumkin bo'lgan barcha ziyon-zahmatlarni ko'ylak orqali itga o'tkazishga qaratilgan magik niyat ushbu ko'ylakni "it ko'ylak" deyilishiga sabab bo'lgan [18. C. 50] deb hisoblasa, boshqa mualliflar esa "chaqaloq tug'ilganiga qirq kun bo'lgandagina uning tanasiga insoniy ruh kiradi. Qirq kun mobaynida u "hayvonot olami"ga tegishli deyilganligi bois ham ushbu ko'ylakni "it ko'ylak" deyilgan" deb ta'kidlaydi [19. C. 75]. Mazkur fikrlarni rad etmagan holda shuni ta'kidlash mumkini, chaqaloqning qirq kunlik chilla davri tugagandan so'ng xuddi kattalarnikiga o'xshash ko'ylak kiydirilishi ham uning odamlar olamiga o'tishini ramziy anglatgan.

Hayvonlar nomi bilan bog'liq antik xo'jalik turlaridan yana biri – baliqchilikdir. Tarixiy va arxeologik manbalarning guvohlik berishicha, mazkur xo'jalik turining paydo bo'lishi paleolit davrining oxirlariga, uning rivojlanish jarayonlari neolit davriga to'g'ri keladi [20. B. 142]. Ma'lumki, qadimgi davrlarda ko'pgina aholi manzilgohlarida tabiiy sharoitning zaruriyat darajasida yaxshi bo'lmaganligi sababli dehqonchilik va chorvachilik xo'jaliklari tashkil topmagan. Jumladan, Shimoliy Ovroosiy, Amerika neolit davri iqtisodining rivojlanish yo'li ovchilik va baliqchilikning yanada takomillashuvi bilan bog'liq bo'lib qolgan edi [21. C. 137].

Shimoliy Amerikaning shimoliy-g'arbiy o'lkalarida yashovchi qabilalar daryolardan baliq ovi

uchun foydalanganlar. Ularda baliq ovchiligi yaxshi rivojlangan edi. Baliq ovlashda turli qurollar mavjud bo'lib, sanchqich, qarmoq, to'r kabilardan unumli foydalanganlar. Ular baliqlarni dudlashni bilishgan. Dudlangan baliqlar ozuqa uchun g'amlab qo'yilar edi [22. C. 142].

Shuni hisobga olgan holda dunyoning boshqa mintaqalari kabi Farg'ona vodiysi aholisining kundalik turmush tarzida baliq kul'ti vva baliqchilik xo'jaligi bilan bog'liq qarashlarini tahlil qilish imkoniyati vujudga keldi. Shuning uchun vodiya yashovchi o'zbek, qoraqalpoq va boshqa etnoslar xo'jaligini tahlil qilish natijasida baliqchilikka doir ancha-muncha etnografik ma'lumotlar to'plandi.

Ma'lumki, Farg'ona vodiysi aholisining kattagina qismini tashkil etuvchi qoraqalpoqlar asosan, Sirdaryoning har ikkala qirg'oqlarida joylashgan bo'lib, ularning xo'jaligida baliqchilik muhim o'rin tutgan. Shu bois ularning uy-ro'zg'or buyumlari qatorida qamish bo'yra, qamish va novdalardan tayyorlangan savat va sumkalar ko'p uchraydi [23. C. 27]. Mana shunday buyumlar baliqchilikda muhim o'rin tutgan. Masalan, kekxa axborotchilarning guvohlik berishicha, Sirdaryo va Norindaryo qirg'oqlarida joylashib qolgan qoraqalpoqlar baliq ovlashda foydalanish uchun qayiqdan ham unumli foydalangan [24. *Dala yozuvlari. Namangan viloyati Mingbuloq tumani Qolgandaryo va Momoxon qishloqlar'i. 2016–2020-yillar*].

Daryo yaqiniga joylashgan qoraqalpoqlar xo'jaligida baliq ovlash muhim ahamiyat kasb etgan. O'zlari uchun an'anaviy mashg'ulot hisoblangan baliq ovlash bilan qoraqalpoqlar vodiylar hududida ham imkon darajasida shug'ullanganlar. Shu bois ham ular mahalliy aholi orasida "shabakkor", ya'ni "baliqxo'rlar" degan nom olgan [25. *Dala yozuvlari. Namangan viloyati Norin tumani Kemaboshi qishlog'i. 2016–2020-yillar*].

Baliq ovlash mashg'uloti vodiylar sharoitida qoraqalpoqlar uchun o'z ahamiyatini asta-sekin yo'qota borgan. Masalan, agar Qo'qon xonligi davrida imkon qadar qoraqalpoqlarning barcha guruhlar baliq ovlash bilan shug'ullangan bo'lsalar, Rossiya bosqinidan esa Andijon va Namangan uyezdlarida yashovchi qoraqalpoq guruhlar xo'jaligida bu mashg'ulotga unchalik ahamiyat berilmay qo'ygan. Faqat, Qo'qon uyezdi Qoraqalpoq volosti hududida yashovchi qoraqalpoq guruhlariga to' XX asrning 40-yillariga qadar baliq ovlash bilan muntazam shug'ullanib kelgan [26. B. 48]. Farg'onalik qoraqalpoqlar daryo va ko'llardan sazan, cho'rtan, laqqa va boshqa turdagi baliqlarni ilashma, sanchqi, gaza, savat, to'r va qarmoq kabi baliqchilik asboblari yordamida ovlaganlar.

Endi Farg'ona vodiysi aholisining baliq kul'ti bilan bog'liq mifologik qarashlariga e'tibor bersak. Ma'lumki, Markaziy Osiyoda yashovchi boshqa xalqlar singari o'zbeklarda ham baliq totemi bilan bog'liq qarashlar mavjud. Baliq kul'ti qadimdan Markaziy Osiyoda keng tarqalgan [27. C. 82]. Samoviy ummonda suzib yuruvchi afsonaviy baliq haqidagi mifologik tasavvurlar "Avesto"da ham ma'lum bo'lgan. Ushbu muqaddas kitobda ushbu g'aroyib baliq Kara deb atalib, u Farog' Kart daryosida yashaydi va kavakirna (oq havm) daraxtini Axrimanning zararidan saqlaydi [28. B. 30].

Olam halokatining baliq bilan bog'liqligiga oid afsona ham diqqatga sazovordir. Afsonada hikoya qilinishicha, go'zal Xorazm vohasining halokatiga Orol dengizida yashovchi bir juft nahang baliq sababchi bo'lar emish. Bu baliq hamisha dengizda yashar, hyech qachon daryo havzasiga yaqin kelmas ekan. Qachonki, shu baliqlar Amudaryo bo'ylab suzib o'tsa, daryo sathi qirq gaz pasayib ketar, izma-iz quvalashib yurgan baliqlar ortga suzib o'tganda yana qirq gaz chuqurlashib suv juda pasayib, dalalarga chiqmay qolarmish. Oqibatda odamlari qurg'oqchilikdan qiynalib, vohani tashlab ketarmish [29. C. 327].

Ushbu afsona olamning intihosi to'g'risidagi qadimgi turk asotirlaridagi kerbaliq obrazi zaminida yuzaga kelgan bo'lsa kerak. Qadimgi turklar kerbaliq yoki kyorbalyqni yer osti olamida yashovchi afsonaviy jonot sifatida tasavvur qilishgan. Go'yo zaminning osoyishtaligi ham ana shu baliqlarga bog'liq emish. Agar kerbaliqlar suv tubiga sho'ng'isa yoki boshini yuqori ko'tarishsa, yer qimirlab, daryolar o'zanidan toshib ketar ekan. Shuning uchun Mangdiy Shira degan afsonaviy bahodir ushbu baliqlar dumiga bog'langan arqon vositasida ularni nazorat qilib turar ekan [30. B. 30].

Baliqlarni muqaddaslashtirish shumerlarning uch panteonlaridan biri bo'lgan suv toshqinlari

xudosi yea bilan bog'liq [31. C. 127]. *Baliqchi* umumturkiy etnonim bo'lib, boshqirdlarning "baliqsı" urug', qabilasi bo'lgan. Qozoqlarning *ulug' juzida balyq, balyqchy* urug'lari borligi ma'lum. S. M. Abramzonning yozishicha, baliqchi urug'i qirg'izlarning saruu qabilasiga ham mansub bo'lgan [32. C. 67]. Bundan tashqari, turkmanlarning yovmut qabilasida ham *balyqsı, baliqchi* urug'i mavjud.

O'z o'rnida shuni ham ta'kidlash zarurki, baliqchi urug'iga mansub kishilar yashab turgan yerlariga ham o'zlarining nomlarini berganlar va buning natijasida urug' nomi bilan yuritiluvchi qator etnotoponimlar paydo bo'lgan. Jumladan, Toshkent viloyati Bo'ka tumanidagi Oqbaliq, Andijon viloyatida *Baliqchi*, Namangan viloyatining Chortoq va Qashqadaryo viloyatining Koson tumanlarida *Baliqchi* nomli qishloqlar, Marg'ilon shahrida *Baliqchi* nomi bilan mahallaning nomlanish tarixi ushbu etnonim bilan bog'liqdir [33. B. 31].

Baliqlarni muqaddaslashtirish izlarini muqaddas joylar bilan bog'liq bo'lgan ushbu jonzotlarni iste'mol qilishga bo'lgan taqiqlarda ham uchratish mumkin. Hozirga qadar Namangan viloyati Chust shahridagi Mavlono buva, Chortoq tumanidagi Baliqliko'l qadamjolaridagi baliqlar muqaddas hisoblanib, ularni tutish, yeyish ma'n qilingan. Ayniqsa, muqaddas joylarning buloqlaridagi baliqlar aziz, ularga qaragan kishi kasallikdan xalos bo'ladi, deb qaralgan. Mahalliy odamlarning ta'kidlashicha, ushbu ziyoratgohlardagi baliqlarni tutgan yoki yegan odamlar pes, maxov kabi davosiz xastaliklarga chalinar yoki o'sha zahotiyoq halok bo'lar ekanlar [34. *Dala yozuvlari. Namangan viloyati Chust tumani Chust shahri. 2015–2018-yillar*].

Shuningdek, muqaddas ziyoratgohlardagi qabr toshlarining baliq shaklida ifodalanishi marhumlar ramzini anglatib kelgan. Bunday holat Samarqanddagi Ruhobod, Qusam ibn Abbos maqbaralari eshiklaridagi tasvirlarda ham aks etgan. Baliqlarning bu tarzda tasvirlanishida ajdodlar kul'ti bilan bog'liq qarashlarga xos tushunchalar mavjud bo'lishi mumkin [35. C. 37].

Farg'ona viloyati Farg'ona tumanidagi Sadkak ota ziyoratgohi buloqlaridagi baliqlarga mahalliy aholi baliq qiyofasidagi avliyo sifatida deb hisoblanadi. Shu sababdan, bunday baliqlarni o'ldirish yoki ushlash og'ir oqibatlariga olib keladi deb qaralgan. Ayniqsa muqaddas joylar buloqlaridagi baliqlar azizlanadi. Masalan, Sadkak ota, So'xdagi Hazrat Ali mozoridagi baliqlarga sariq kasali (gepatit) bilan og'rigan kishilar qarasa kasallik baliqlarga o'tib dardan forig' bo'ladi degan qarash mavjud [36. B. 14].

Dinshunos olim J. Frezer ham bir qator xalqlarda muqaddas hisoblangan ko'llardagi har bir baliqda bir odamning joni mavjud bo'ladi, agar baliq tutilsa, bir odam o'ladi, degan tushunchalar keng tarqalganligi qayd etgan [37. C. 761]. Baliq ibtidoiy kishilar ongida g'ayritabiiy hodisa, atrofini yovuz ruhlardan tozalovchi, odamlarga tetiklik, kuch va g'ayrat ato etuvchi ilohiy jonzot timsolida gavdalangan va u qavmlar orasida o'zi bilan bog'liq turli xil urf-odat, udumlar tizimining yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Ayrim keksa axborotchilar ta'kidlashicha, qadimda ba'zi shomonlar kasalni o'qib, badaniga joylashib olgan yovuz ruhlarni haydab chiqarish maqsadida uning yelkasiga tirik sazan bilan urib davolaydi. Demak, mifologik tadqiqotlarda ta'kidlanganidek, baliq bor joyda yovuz ruh chekinadi, sog'lik va halollik paydo bo'ladi [38. B. 9].

Bundan tashqari, baliq kul'ti bilan bog'liq qarashlar vodiylar aholisining oilaviy hayoti va kundalik taomlarida ham o'z aksini topgan. Masalan, Farg'ona vodiysining aksariyat hududlarida homilador ayolga baliq go'shtini iste'mol qilish man qilinib, parhyez buzilsa, bo'lajak bola ba'zi jismoniy nuqsonlar: og'zining qiyshiq holatda tug'ilishi mumkin, degan tushuncha mavjud bo'lgan [39. *Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati Dang'ara tumani Tumor va Qudug' qishloqlari. 2020–2025-yillar*].

Yana shuni aytish joizki, baliq go'shti shunchalik halol hisoblanganki, hatto yangi tuqqan ayol qirq kun o'tmaguncha baliq go'shti yemagan. Chunki, ushbu davrda ayol harom hisoblanib, halol taomni harom qilib qo'yar ekan [40. *Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati Dang'ara tumani Xo'jaqishloq va Olaxamak qishloqlari*]. Surxondaryo o'zbeklarida esa "hyech bo'lmasa, yilda bir marta baliq go'shti yeb, luqmani halolab turish kerak", -degan naqlga amal qilib, vaqti-vaqti bilan baliq go'shti yeb turgan [41. B. 76]. Bunday aqidaga qattiq amal qilish Farg'ona vodiysida ham

bo‘lib, ro‘zadan avval uni iste‘mol qilishga alohida e‘tibor berganlar [42. B. 134].

Shuni hisobga olgan holda Farg‘ona vodiysi aholisi orasida hozir ham mavjud bo‘lgan baliq kul‘ti va baliqchilik bilan bog‘liq ba‘zi urf-odat va irim-sirimlarni keltiramiz:

1. Ovga ketish jarayonida orqaga qaytilmaydi. Birov to‘xtatsa, to‘xtalmaydi. Ovi baroridan kelmasligi mumkin, deb irim qilinadi.

2. Ovga ketish jarayonida biror bir kimsa narsa so‘rsa, berilmaydi, chunki o‘zi ham olgani ketayotgan bo‘ladi.

3. Birinchi ushlagan baliq‘i qanday kattalikda bo‘lmasin, tashlab yuborilmaydi. Chunki, ushbu o‘lja ovning boshi hisoblanadi.

4. Juma kuni ovga har qanday holatda chiqilmaydi. Sababi, muqaddas kun bo‘lganligi uchun.

5. Baliqchi sumkasining bir uchi suvga tashlab qo‘yiladi, chunki sumka baliqqa to‘lsin, deb niyat qilinadi.

6. Baliq dekabr-yanvar oylarida kamayadi, chunki suvning sovushi natijasida baliqlar suvning tubiga tushib ketadi.

7. Daryoning baliq‘i erkinlikda bo‘lganligi va harakati ko‘pligi uchun uning go‘shiti shirin bo‘ladi.

8. Daryoning baliq‘i ingichka uzun bo‘ladi, zovurning baliq‘i esa yo‘g‘on bo‘ladi. Buning sababi, ularning harakatlanish doirasi bilan bog‘liq.

9. Ov jarayonida ko‘p gapirilmaydi. Baliq hurkishi mumkin, deb irim qilinadi [43. *Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati Dang‘ara tumani Tumor qishlog‘i. 2020–2025-yillar*].

Xulosa sifatida shuni qayd etish kerakki, hayvonlar bilan bog‘liq tasavvurlar bir necha ming yillik diniy-axloqiy, afsonaviy va marosimiy ildizlarga ega. Ushbu jihatlar xalq og‘zaki ijodi namunalari, ramzshunoslik, diniy-axloqiy qarashlar va hayvonlar bilan bog‘liq tasavvurlarda saqlanib qolgan.

Bundan tashqari, o‘zbek oilasi marosimiy hayotida hayvonlar muhim vosita bo‘lib kelgan va dolzarb ahamiyat kasb etgan. Ular orqali farzand tug‘ilishidan tortib to dafn marosimigacha bo‘lgan marosimlar bajarib kelingan. Bundan tashqari, ayrim sehr bilan bog‘liq marosimlarning bajarilishida ham hayvonot olami bilan bog‘liq qarashlar mavjud bo‘lib, aholi orasida ayrim kasalliklarni oldini olish, davolash yoki ba‘zi mushkulliklarni bartaraf etish maqsadida amalga oshiriladi.

Shuningdek, “yetti xazinaning biri” bo‘lgan baliq va u bilan bog‘liq qarashlar hamda marosimlar juda qadim davrlarga borib taqaladi. Mazkur qarashlar va marosimlarning negizida insonning tabiatga va uning ne‘matlariga bo‘lgan ijobiy munosabati yotadi. Baliq faqatgina yegulik bo‘lib qolmay, qolaversa, o‘z navbatida davolovchi vazifasini ham bajarganligi etnografik manbalardan ma‘lum. Buni vodiy aholisi orasida mavjud bo‘lgan qadimiy diniy e‘tiqodlardan biri bo‘lgan shomonlikning davolash an‘analarida ham kuzatish mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Ingold T. Companion Encyclopedia of Anthropology. Routledge. – London and New York, 2003.
2. Традиционное мировоззрение тюрков Южной Сибири. Знак и ритуал. – Новосибирск, 1987. – С. 35–38.
3. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-a/animalizm-uz>.
4. Мусаев Д., Мусаева Ф. Пулларни муомалага киритилиши тарихидан / Тарих тилга кирганда... Даврий тўплам. – Наманган, 2017. – Б. 49.
5. Низомов А., Рахимова Г., Расулова Н. Топонимика. – Тошкент: Шарқ, 2013. – Б. 7–8.
6. Охунов Н. Ўзбекистон топонимияси. – Қўқон, 2005. – Б. 44.
7. Неъматова О. Наманган вилояти ойконимларининг тарихий-лисоний тадқиқи. Филол. фан. бўй. фалс. докт (PhD)..дисс. – Фарғона, 2018 – Б. 59.
8. Davurova H. H. Jizzax viloyati oykonimlarining lisoniy tadqiqi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2023. – B. 76.

9. O'sha joyda.
10. Раҳмонов С. Асака. – Тошкент, 1999. – Б. 9.
11. Қораев С. Топонимика. – Тошкент, 2006. – Б. 96.
12. Dala yozuvlari. Farg'ona vodiysi aholi punktlari. 2020–2025-yillar.
13. Мингбоева Д. Тимсоллар тилсими. – Тошкент, 2007.
14. Нафасов Т. Этномаданий жараёнларда этнонимларнинг ўрни / “Академик Карим Шониёзов ўқишлари” туркумида этнологларнинг V республика илмий конференцияси материаллари. – Тошкент, 2010. – Б. 71.
15. Андрианов Б. Бык и змея (У истоков культа плодородия) // Наука и религия. – 1972. – №1. – С. 32.
16. Dala yozuvlari. Andijon viloyati Baliqchi Ko'l mahallasi. 2024-yil.
17. Исмоилов Ҳ. Анъанавий ўзбек кийимлари (XIX аср охири – XX аср боши). – Тошкент, 1978. – Б. 40–41.
18. Кисляков Н. А. Семья и брак у таджиков. – Л., 1959. – С. 50; Есбергенов Х., Атамуротов Т. Традиции и их переобразования в городском быту каракалпаков. – Нукус, 1973. – С. 149.
19. Толеубаев А. Т. Реликты доисламских верований в семейной обрядности казахов. – Алма-Ата, 1991. – С. 75.
20. Косвен М. О. Ибтидоий маданият тарихидан очерклар. – Тошкент: Фан, 1960. – Б. 142.
21. Першиц А. И., Монгайт А. Л., Алексеев В. П. История первобытного общества. – М., 2004. – С. 137.
22. Yuqoridagi asar.... – С. 142.
23. Толстова Л. Каракалпаки Ферганской долины (историко-этнографический очерк). – Нукус, 1959. – С. 27.
24. Dala yozuvlari. Namangan viloyati Mingbuloq tumani Qolgandaryo va Momoxon qishloqlari. 2016–2020-yillar.
25. Dala yozuvlari. Namangan viloyati Norin tumani Kemaboshi qishlog'i. 2016–2020-yillar.
26. Ўзбекистон ҳудудида анъанавий этнослараро жараёнлар. – Тошкент: Фан, 2011. – Б. 48.
27. Снесарев Г. П. Хорезмские легенды – как источник по истории религиозных культов Средней Азии. – М., 1968. – С. 82.
28. Аширов А. А. Ўзбек халқининг қадимий этиқод ва маросимлари. – Тошкент, 2007. – Б. 30.
29. Снесарев Г. П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – М.: Наука, 1969. – С. 327–328.
30. Аширов А. А. Ўзбек халқининг қадимий этиқод... – Б. 30.
31. Робакадзе А. И. К вопросу о некоторых пережитках культа рыбы // Советская этнография. – 1948. – №3. – С. 127.
32. Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Тошкент, 1968. – Б. 48.
33. Абрамзон С. М. Киргизы и их этногенетические и историко-культурные связи. – Л., Наука, 1971. – С. 67.
34. Аширов А. А. Ўзбек халқининг этиқод.... – Б. 31.
35. Dala yozuvlari. Namangan viloyati Chust tumani Chust shahri. 2015–2018-yillar.
36. Ремпель Л. И. Цепь времен. – Ташкент, 1987. – С. 37.
37. Абдулахатов Н. Фарғона водийси аҳолси турмуш тарзида зиёратнинг ўрни. Тарих фан. ном. олиш. учун. ёзилган дисс. – Тошкент, 2008. – Б. 14. ¹
38. Фрэзер Д. Золотая ветвь. – М., 1986. – С. 761.
39. Имомов К. Ўқ йўлини тўсган балиқ / Фольклоршунослик. Ўзбек халқ оғзаки бадиий ижодиётига доир тадқиқотлар. – Навоий, 2003. – Б. 9.

40. Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati Dang‘ara tumani Tumor va Quduq qishloqlari. 2020–2025-yillar.
41. Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati Dang‘ara tumani Xo‘jaqishloq va Olaxamak qishloqlari. 2020–2025-yillar.
42. Файзуллаева М. Сурхон воҳаси ижтимоий ҳаётида таомлар билан боғлиқ анъана ва маросимлар. Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2009. – Б. 76.
43. Абдуллаев У. С. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар. – Тошкент, 2005. – Б. 134.
44. Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati Dang‘ara tumani Tumor qishlog‘i. 2020–2025-yillar.

Huquqni muhofaza qilish organlari kadrlari va ularni tayyorlash sohasida xalqaro hamkorlik

Xolmamatov Fayzulla
kholmamatov.f@gmail.com
Mustaqil izlanuvchi
Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya. Maqola huquqni muhofaza qilish organlari kadrlarini tayyorlash va ularning xalqaro hamkorlik doirasidagi faoliyatini o'rganadi. Shuningdek, maqolada xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilishning afzalliklari va kelgusida bu yo'nalishdagi strategiyalar muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: huquqni muhofaza qilish organlari, kadrlar tayyorlash, xalqaro hamkorlik, xavfsizlik, xalqaro standartlar.

International cooperation in the field of law enforcement personnel and their training

Xolmamatov Fayzulla
kholmamatov.f@gmail.com
Independent researcher
Karshi State University

Annotation. The article examines the training of law enforcement personnel and their activities within the framework of international cooperation. The article also discusses the advantages of cooperation with international organizations and future strategies in this direction.

Keywords: law enforcement agencies, personnel training, international cooperation, security, international standards.

Международное сотрудничество в области кадров правоохранительных органов и их подготовки

Холмаматов Файзулла
kholmamatov.f@gmail.com
Независимый исследователь
Каршинский государственный университет

Аннотация. В статье рассматривается подготовка кадров правоохранительных органов и их деятельность в рамках международного сотрудничества. В статье также рассматриваются преимущества сотрудничества с международными организациями и будущие стратегии в этом направлении.

Ключевые слова: правоохранительные органы, подготовка кадров, международное сотрудничество, безопасность, международные стандарты.

Zamonaviy sharoitda ichki ishlar organlarining yuqori malakali kadrlarini tayyorlash davlatning asosiy vazifalaridan biridir. Ichki ishlar organlari xodimlarini tanlash, o'qitish va tayyorlash davlat faoliyatining eng muhim yo'nalishlari bo'lib, huquqni muhofaza qilish funksiyalarini amalga oshirishni ta'minlaydi[1].

2000 yilda Moskvada bo'lib o'tgan "Polisiya xodimlarini tayyorlash: Muammolar va rivojlanish yo'llari umumevropa miqyosida" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasida polisiya xodimlarini maxsus tayyorlash samaradorligini oshirish, polisiya va aholi o'rtasidagi yaqin

munosabatlarni mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, jamiyatda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash masalalari muhokama etiladi[2].

Huquqni muhofaza qilish organlarini tayyorlash sohasidagi xalqaro hamkorlik jinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlikning yangi istiqbolli yo'nalishi hisoblanadi. Dunyoda integratsiya jarayonlari jadal rivojlanib borayotgan, turli sohalarida mamlakatlarning sezilarli darajada yaqinlashishi, jinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlik kengayayotgan zamonaviy sharoitda ichki ishlar organlari xodimlarini xalqaro hamkorlikni jadal rivojlantirish sharoitida ishlashga o'rgatish zarurati paydo bo'ldi. Zamonaviy polisiya xodimlari chet tillarini va huquqiy tizimlarning o'ziga xos xususiyatlarini bilishlari kerak bo'ldi. Xalqaro xarakterdagi jinoyatlar soni ortib borayotgan bir sharoitda ularga qarshi kurashishga qodir mutaxassislarni tayyorlash zaruriyati kelib chiqdi. Polisiya xodimlarini xalqaro miqyosdagi jinoyatlarga qarshi kurashishga samarali o'rgatish va milisiya kadrlarini tayyorlash sohasida xalqaro hamkorlikni faol rivojlantirish bilan yaqin xalqaro hamkorlik sharoitida ishlash mumkinligini hayotning o'zi tasdiqladi.

Ko'pgina mamlakatlar o'zlarining milliy kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilishlari va takomillashtirishi talab etildi. Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarini tayyorlash sohasida xalqaro hamkorlikda ishtirok etish orqali davlatlar o'qitishning yangi usullari, ijobiy tajribalari haqida ma'lumot almashish va ulardan polisiyani tayyorlashda foydalanish, mutaxassislar tayyorlashda boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlardan yordam olish, shuningdek, jinoyatchilikka qarshi kurashning zamonaviy uslublari va taktikalari bilan o'zaro boyitish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatida inson huquqlariga rioya qilish demokratik jamiyatda milisiya faoliyatining asosiy tamoyillaridan biriga aylandi. Inson huquqlarini hurmat qilish tamoyili ham soha kadrlarini tayyorlashning asosiy tamoyili sifatida tan olingan.

Huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatida inson huquqlarini ta'minlash muammosi xalqaro miqyosda tobora muhim ahamiyat kasb etib bordi. Bu boradagi eng muhim xalqaro hujjatlar, 1979 yildagi huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining odob-axloq kodeksi, 1979 yilgi Yevropa Kengashining polisiya to'g'risidagi deklaratsiyasi va boshqalar qabul qilindi. Shu munosabat bilan ichki ishlar organlari xodimlarini inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro standartlarga o'rgatish, ichki ishlar organlari xodimlarini malakasini oshirishga xalqaro tashkilotlarni keng jalb etish dolzarb masalaga aylandi[3].

1999-yil may oyida Venada to'rtinchi Xalqaro Polisiya Simpoziumida polisiya tayyorlashni xalqaro miqyosda takomillashtirish va rivojlantirish ko'pchilik mamlakatlar uchun ustuvor vazifa ekanligini ta'kidlanadi.

BMTning 1961 yildagi "Giyohvandlik vositalari to'g'risida"gi yagona Konvensiya, 1971 yildagi "Psixotrop moddalar to'g'risida"gi Konvensiya, 1988 yilda "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan noqonuniy muomala qilishga qarshi kurash to'g'risida"gi Konvensiyalar giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalardan tibbiy va boshqa qonuniy maqsadlarda foydalanishni va shunday vosita va moddalarning suiiste'mol qilishga yo'l qo'ymaslikni huquqiy tartibga soladi[4]. O'zbekiston ushbu muammoning xalqaro miqyosda hal etilishi jarayonida faol ishtirok etib keldi. O'zbekiston BMTning 1961, 1971 va 1988 yillarda qabul qilgan Konvensiyalariga 1995 yilda qo'shildi. Ayni paytda dunyoning 20 dan ortiq davlatlari bilan giyohvand moddalarni tarqatishga qarshi kurash masalalarida hamkorlik qilish bo'yicha idoralar va hukumatlararo bitimlar imzolandi. Jumladan, Rossiya Federatsiyasi, Ukraina, Belorussiya, Moldava, Gruziya, Ozarbayjon, Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston davlatlari bilan ikki tomonlama hamda AQSH, Turkiya, Pokiston davlatlari bilan hukumatlararo bitimlar tuzilgan[5].

O'zbekiston "Havo kemasi bortida sodir etiladigan jinoyatlar va boshqalar to'g'risida"gi 1963 yil 14 sentyabrdagi Tokio konvensiyasi, "Havo kemalarini g'ayriqonuniy tarzda egallab olishga qarshi kurashish to'g'risida"gi 1970 yil 16 dekabrdagi Gaaga konvensiyasi, "Fuqaro aviatsiyasi xavfsizligiga qarshi yo'naltirilgan noqonuniy aktlarga qarshi kurashish to'g'risida"gi 1971 yil 23 sentyabrdagi Monreal konvensiyasi, ushbu konvensiyani to'ldiruvchi "Aeroportlarda xalqaro fuqaro aviatsiyasiga xizmat qilish, g'ayriqonuniy harakatlarga qarshi kurashish to'g'risida"gi 1988 yil 24

fevraldagi protokoli, “Xalqaro himoyadan foydalanuvchi shaxslarga, shu jumladan diplomatiya agentlariga qarshi jinoyatlarni oldini olish va bunday jinoyatlar uchun jazolash to‘g‘risida”gi 1973 yil 14 dekabrda qabul qilingan konvensiyasi, “Odamlarni garovga olishga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi 1979 yil 17 dekabrda qabul qilingan Vena xalqaro konvensiyasi, “Yadroviy materialni jisman himoya qilish to‘g‘risida”gi 1979 yil 26 oktyabrda qabul qilingan Vena konvensiyasi, “Plastik portlovchi moddalarni topa olish maqsadida markirovka qilish to‘g‘risida”gi 1991 yil 1 martda qabul qilingan Monreal konvensiyasi, “Bombali terrorizmga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi 1997 yil 15 dekabrda qabul qilingan xalqaro konvensiyasi, “Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi 1999 yil 9 dekabrda qabul qilingan xalqaro konvensiyasi, bundan tashqari “Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi 2001 yil 15 iyunda qabul qilingan Shanxay konvensiyasini radifikatsiya qildi[6].

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2000 yil 15 noyabrda qabul qilingan Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasi, MDH davlatlarining 1996 yil 12 aprelda qabul qilingan iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish to‘g‘risidagi bitimi, Rossiya Federatsiyasi Hukumati va Isroil Davlati Hukumati o‘rtasida jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha hamkorlik to‘g‘risidagi bitimi polisiyani tayyorlash sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshirishning tashkiliy shakllarini o‘rganish va tizimlashtirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Turli davlatlarning hukumatlari jinoyatchilikka qarshi kurashda faol hamkorlik qilib, jinoyat faktlarini aniqlash va ularga chek qo‘yishga harakat qilindi.

“Shanhay hamkorlik tashkiloti” (SHHT) Mintaqaviy aksilterror tuzilmasiga a‘zo davlatlar tomonidan bir qator kelishuv va shartnomalar imzolandi. Xususan, “SHHT aksilterror tashkiliy bo‘limlari uchun kadrlar tayyorlash to‘g‘risidagi kelishuv” va boshqalar ham kiritilgan[7].

Huquqni muhofaza qilish sohasi ta‘limi va kadrlar tayyorlash tizimining vujudga kelishi dunyo mamlakatlari ta‘lim tizimi va kadrlar tayyorlashning tarkibiy qismi sifatida kup asrdan buyon yashab keldi. Ushbu ta‘lim pedagogikaning o‘qitish va tarbiyalash jarayonlariga muvofiqlashtirilgan holda uning yutuqlari va an‘analariga asoslanadi. Mustaqillik yillari O‘zbekiston huquqni muhofaza qilish organlari uchun kadrlar tayyorlash bilan shug‘ullangan ta‘lim muassasalari ham xorijiy mamlakatlar bilan yaqindan hamkorlik aloqalarini o‘rnatdi. Masalan, O‘z R IIV Akademiyasi ham dunyoning qator davlatlari va nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan aloqalar o‘rnatib, muayyan natijalarga erishdi. IIV Akademiyasining bir qator professor-o‘qituvchilari AQSH, Germaniya, Italiya, Rossiya, Shvesiya, Fransiya, Vengriya, Avstriya kabi bir qator mamlakatlarning polisiya ta‘lim muassasalarida malaka oshirdi.

Xullas, huquqni muhofaza qilish organlari kadrlarini tayyorlash sohasidagi xalqaro hamkorlik jinoyatchilikka qarshi kurash bo‘yicha xalqaro hamkorlik sohasi bo‘lib, davlat organlari, ichki ishlar vazirliklari yoki boshqa polisiya tuzilmalari, xalqaro hukumat va nodavlat tashkilotlari o‘rtasidagi hamkorlikni, ichki ishlar organlari xodimlarini ishga qabul qilish samaradorligini oshirish va oshirish, milisiya idoralari xodimlarining xalqaro malakasini oshirish, ichki ishlar organlari xodimlarining xalqaro malakasini oshirish, ichki ishlar organlari xodimlarining malakasini oshirish, ichki ishlar idoralari xodimlarining malakasini oshirishni anglatadi. Xodimlarni tayyorlash sohasidagi xalqaro hamkorlik turli mamlakatlarda polisiya xodimlarini tayyorlashni tashkil etish va usullaridagi sezilarli farqlar sharoitida amalga oshiriladi.

Huquqni muhofaza qilish sohasidagi xalqaro hamkorlik asosan hukumatlararo va idoralararo xarakterdagi ikki tomonlama xalqaro shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бородин С.В., Ляхов Е.Г. Международное сотрудничество в борьбе с уголовной преступностью. М., 1983.
2. Алексеева Т. О. Международное сотрудничество в области подготовки полицейских кадров. Автореф. дисс... юрид. наук. –Москва, 2003.
3. Алексеева Т. О. Международное сотрудничество в области подготовки полицейских кадров. Автореф. дисс... юрид. наук. –Москва, 2003.

4. Инсон ва қонун, 2002 йил 19 февраль.
5. Тоҳиров Ф Гиёҳвандлик – хавfli иллат // Инсон ва қонун, 2002 йил 5 февраль.
6. Диний экстремизм ва терроризмга қарши курашишга оид норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўплами. Қўлланма, Тошкент- 2015. 5-49 бетлар.
7. Матлюбов Б.А. Терроризм ва экстремизмга қарши курашиш: муаммо ва ечимлар: Ўқув қўлланма. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2018. – Б.147.